

ZAMONAVIY DUNYODA TA'LIM



Abstract:

Zamonaviy duniyoda ta'lim, zamonaviy ta'limdagi texnologiya va multimedialardan foydalanish.

Key words:

zamonaviy
ta'lim, texnologiyal
ar,
multimedialar, aud
iolar

Author of the article:

To'lanova Shahnoza
Muhiddin qizi

Workspace (Education subject)

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani
1-DMTT tarbiyachisi

Kirish

Istiqlol yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida qabul qilingan sohaga oid qonunlar, farmonlar, davlat dasturlariga binoan ko'plab ta'lim muassasalari yangidan qurildi, ta'mirlandi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlandi.

Asosiy qism

Bugungi kunga kelib esa prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoniga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim va Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, mamlakatimizda zamon talabiga mos, yuksak intellektual salohiyatlari, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda o'qitishda innovations texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jallb etish imkonini bermoqda.

Zamonaviy ta'limga texnologiyalar

Hozirda ta'limga muassasalar zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu esa pedagoglardan o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashishlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi o'quv jarayonida ta'limga vositalari asosida pedagog faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallahuviga olib keladi. Endi pedagogdan:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'limga natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'quv materiallarining talabalar tomonidan qabul qilinishi va ularning xotirasida saqlanib qolish darajasi o'qitish usullariga bog'liq ekan. O'qituvchi o'qitish jarayoniga yangi ta'limga texnologiyalarni kiritib, noan'anaviy ta'limga usullaridan: "Konferensiya darsi", "Seminar darsi", "Aralash darslar", "O'yinchoqlar yordamida dars o'tish", "Kasbga bog'lab dars o'tish", "Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish", "Evrika" (O'ylab top); ta'limga qiziqarli faol usullaridan: "Kichik va katta guruhlarda ishlash", "Rolli o'yinlar", "Sahna ko'rinishi", "Krossvordlar yechish", "Zakovat savollari", "Test-sinov" topshiriqlari, "Turli targatma materiallardan foydalanib dars o'tish", "Sinkveyn o'yinlari"; shuningdek, ta'limga innovatsion (yangi) usullari: "Modifikatsiyalashgan ta'limga", "Improvizatsiya", "Aqliy hujum", "Debat", "Taqnidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster usuli", "Muammoli vaziyat", "Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish", "Har kim har kimga o'rgatadi", "Nuqtayi nazaring bo'lsin", "Multimediya" va boshqalarni qo'llashi muhimdir".

Multimedialardan foydalanish

Bu borada ta'limga jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning istiqbolli yo'naliishlarini keng joriy etish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'limga multimedia vositalaridan foydalangan o'qituvchi nazariy bilimlarni zamonaviy texnika vositalari yordamida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir jozi bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi, mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi, individual qobiliyatlarini rivojlantirishga, tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam beradi. Multimedia resurslari yordamida talabalar u yoki bu mavzuni tezroq o'zlashtiradilar, o'quv jarayonining faol ishtiroychisiga aylanadilar.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'limga tashkil etishdagagi muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natjalarga erishish ekan, bunda multimedialar ishonchli vosita bo'la oladi, deb hisoblaymiz. Istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yaratishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir.